Meliboev Azizjon Nizomiddinovich, Qo‘qon davlat universiteti v.v.b dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Мелибоев Азизжон Низомиддинович — исполняющий обязанности доцента Кокандского государственного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам.

Meliboev Azizjon Nizomiddinovich — Acting Associate Professor at Kokand State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.

IJTIMOIY FAROVONLIKNI OSHIRISHDA KAMBAG’ALLIKNI BARTARAF ETISHNING ISTIQBOLLI VAZIFALARI: YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЗАДАЧИ ПО СНИЖЕНИЮ УРОВНЯ БЕДНОСТИ В КОНТЕКСТЕ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ: ОПЫТ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

FUTURE TASKS FOR ERADICATING POVERTY TO ENHANCE SOCIAL WELL-BEING: THE EXPERIENCE OF NEW UZBEKISTAN

Annotatsiya: Maqolada kambag’allikka qarshi kurash va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash, aholi uchun fuqarolik jamiyatiga mos strategik islohotlarni o‘tkazish, islohotlarning samaradorligini taminlash, yaratilayotgan imkoniyatlar va fuqarolarning intelektual salohiyati yuksalishining asosiy ustuvor mehanizimlari haqida fikr mulohazalar bayon qilinga.

Аннотация: В статье представлены мнения об основных приоритетных механизмах борьбы с бедностью и обеспечения социального благополучия, реализации стратегических реформ, соответствующих гражданскому обществу и населению, обеспечении эффективности реформ, создании возможностей и повышении интеллектуального потенциала граждан.

Abstract: The article discusses key mechanisms for combating poverty and ensuring social well-being, implementing strategic reforms aligned with civil

society, ensuring the effectiveness of these reforms, and leveraging emerging opportunities to enhance citizens' intellectual potential.

Tayanch tushunchalar: kambag'allik, farovonlik, ijtimoiy farovonlik, fuqarolik jamiyati, strategik, intelektual salohiyat.

Ключевые понятия: бедность, благополучие, социальное благополучие, гражданское общество, стратегический, интеллектуальный потенциал.

Key concepts: poverty, well-being, social well-being, civil society, strategic, intellectual potential.

Insoniyat farovon hayot kechirish, o'zining barcha intelektual salohiyatlarini maksimal darajada namoyon qilish uchun bor imkoniyatlarini ishga solib kurash olib borgan. Bugungi kunda dunyo malakatlarining qanday g'oya va mafkuralar tasirida rivojlanayotganligidan qatiy nazar jamiyatda inson uchun qanday erkinliklar yaratilganligi davlatning qudratini ko'rsatib beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Shunday yo'nalishlardan biri bu-ijtimoiy erkinliklardir. Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurish maqsad qilib olindi.

Shu o'rinda olib borilayotgan isloxotlar natijasida "izchil sa'y-harakatlarimiz tufayli bugungi kunda kambag'allik darajasini 2017 yildagi 35 foizdan 4 foizga tushirishga erishdik. Ushbu raqamlar zamirida ro'zg'origa baraka kirib, turmush sifati yaxshilangan 10 million insonning quvonchi va shukronalik tuyg'ulari mujassam"-deya ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirishga asoslanadi. Zero, yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash,

kambag‘allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek: “Asosiy maqsadimiz – odamlarimizni doimiy daromadli qilishdan iborat. Puli bor odam yaxshi kiyinish va ovqatlanishga, sifatli ta’lim va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga, mazmunli dam olishga, bir so‘z bilan aytganda, farovon yashashga intiladi”.

Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurish maqsad qilib olindi. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirishga asoslanadi. Zero, “yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga” ko‘tarildi. Ijtimoiy davlat – insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi. Ijtimoiy davlat g‘oyasi, eng avvalo, qadimgi Sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy ma’rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g‘oyasini “Fozil odamlar shahri” asarida tarannum etgan.

Boshqa bir ta’rifga ko‘ra, ijtimoiy davlat – bu davlatning shunday modeliki, unda ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordam berish maqsadida moddiy boyliklarni qayta taqsimlashga qaratilgan siyosat yuritiladi. Demak, davlat o‘z fuqarolariga g‘amxo‘rlik qilishga mas’uliyat bilan yondashishi shart. Zero, ijtimoiy davlat – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z fuqarolariga muayyan darajada farovonlikni kafolatlaydigan davlatdir. Bunday davlatda jamiyatning har bir ehtiyojmand a’zosini hech istisnosiz ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimi qaror topadi,

davlat fuqarolar farovonligining muayyan darajasi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Ijtimoiy davlatning belgilaridan biri sifatida aholining daromadlarini yirik mulkdorlarga zarar yetkazmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi ta’minlanganligini ko‘rsatish mumkin. Bunday davlatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti hamda fuqarolik jamiyati qaror topadi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlangan tarmog‘i yaratiladi; davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshiriladi; har bir fuqaroga munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta’minot va shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun birlamchi zaruriy sharoitlar kafolatlanadi; ijtimoiy sug‘urta badallarining rivojlangan tizimi joriy qilinadi; byudjetni shakllantiruvchi soliqlarning va ijtimoiy sohaga to‘lovlarning muayyan miqdori ta’minlanadi

Bilvosita ko‘rinishda **“**farovonlikni ta’minlovchi davlat” yoki “umumfarovonlik va xurramlikni ta’minlovchi davlat**”** kabi tushunchalar orqali ijtimoiy davlat tamoyili Buyuk Britaniya Konstitutsiyaviy aktlarida, Italiya Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan .

Dunyo amaliyotida **“Ijtimoiy davlat”** maqomiga ega davlatlar iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan, davlatning boshqaruv tizimi ijtimoiy yo‘naltirilgan, fuqarolik jamiyati har tomonlama shakllangan, davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni amaliyotga joriy etish tajribasi tizimlashtirilgan bo‘ladi. Shu bilan birga mazkur mamlakatlar har bir fuqarosiga munosib turmush sharoitini ta’minlash, yashash uchun teng sharoitlar yaratish hamda o‘z fuqarolari oldida ko‘plab ijtimoiy ma’suliyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

Xorijiy mamlakatlardagi ijtimoiy davlat tamoyillari tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlatlarning asosiy hujjatlarida “ijtimoiy davlat” tushunchasining mustahkamlanishi jamiyatda ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyani ta’minlash vositalari asosida boshqaruv tizimiga asoslanishidan dalolat beradi.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyili ustuvorligi asosida kambag‘allikni qisqartirishda quyidagi imkoniyatlar paydo bo‘ladi:

Birinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy sohaga yanada ustuvorlik berish orqali fuqarolar tengligini ta’minlash, ijtimoiy tabaqalashuvni oldini olish, ijtimoiy yordamga muhtoj aholini davlat tomonidan har tomonlama himoya qilish choralarini ko‘rish davlat tomonidan kafolatlanadi;

Ikkinchidan, barcha fuqarolarimizga, xususan, ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga dalat tomonidan birlamchi malakali tibbiy xizmatlarni bepul amalga oshirish hamda sifatli ta’lim olish va shunga o‘xshash xizmatlar ko‘rsatish qonun jihatidan mustahkamlanadi;

Uchinchidan, ijtimoiy davlat g‘oyasini Konstitutsiyamizda mustahkamlanishi jamiyatda “ijtimoiy tabaqalanish”ni kamaytirish, “ijtimoiy tenglik” hamda “ijtimoiy adolat” tamoyillari asosida boshqarishni hukumat zimmasiga oladi va shu tamoyillarni bajarilishiga kafolat beradi.

Buning uchun esa, yurtimizda so‘nggi yillarda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning institutsional asoslari yaratilib, kambag‘allikni qisqartirish masalalarini muvofiqlashtiruvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yildi.

Ikkinchidan, ehtiyojmand aholini moddiy va nomoddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida joylardagi to‘rtta sektor, mahalla organlari, keng jamoatchilik vakillari hamda deputatlar bilan birgalikda kambag‘al va moddiy yordamga muhtoj oilalar ro‘yxati – “Temir daftar” tizimi tashkil etildi.

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlarning taklif va tavsiyalari asosida aholining minimal iste’mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibi amaliyotga joriy etildi. Mazkur uslubiyot O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim dastaklardan biri bo‘lib, ijtimoiy standartlarni belgilashda foydalanilmoqda.

To‘rtinchidan, o‘rta va uzoq muddatlarda kambag‘allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, “2021—2030-yillarga qadar

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi” ishlab chiqildi. Unda kambag‘allikni qisqartirish uchun kompleks yondashilib, ustuvor yo‘nalishlar doirasida chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Albatta, bugun mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bu boradagi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Bu borada ijtimoiy, iqtisodiy, ma’rifiy-madaniy sohalarning hamkorlikdagi faoliyati hamda amalga oshirilayotgan ishlarning shaffofligini ta’minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kambag‘allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini va hayot farovonligini oshirish har bir davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ushbu masalalar davlat rahbarlarining ko‘plab chiqishlarida va xalqaro tashkilotlarning kun tartibida aks ettirilgan. Shu maqsadda oldimizga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish, ya’ni kambag‘allikni qisqartirish, insonlar hayoti sifatini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalarni dunyo va mintaqa ekspertlari bilan birgalikda muhokama qilish hamda fikr almashish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida, 2022-yilning 26-27-may kunlari Buxoro shahrida ilk bor “O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish xalqaro forumi” o‘tkazildi. Unda kambag‘allik mamlakat barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi jiddiy muammo sifatida e’tirof etilib, mazkur yo‘nalish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy masalalari sifatida quyidagilar nazarda tutildi:

Birinchidan, kambag‘allik jinoyatchilikning o‘sishiga ta’sir qiladi. Jinoyatchilik aholining kam ta’minlangan qatlamlari orasida keng tarqaladi va ular “daromad olish” ning jinoiy shakllariga murojaat qilish ehtimoli katta hisoblanadi.

Ikkinchidan, kambag‘allikning ikkinchi salbiy oqibati – turmush darajasi past va daromadlari yuqori bo‘lmagan aholi qatlamlarining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi..

Uchinchidan, kambag‘allik alkogolizm va giyohvandlikning o‘sishiga ham bevosita ta’sir qiladi.

To‘rtinchidan, kambag‘allikning yuqori darajasi jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Beshinchidan, aholining umumiy ma’lumot darajasi pasayib boraveradi. Shuning uchun ham, kambag‘allikning salbiy oqibatlarini e’tiborga olgan holda, mamlakatimizda unga qarshi kurashning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biriga aylandi.

Istiqboldagi rejalar muhokamasi va o‘zaro fikr almashish maqsadida tashkil etilgan “O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirish xalqaro forumi”da 250 ga yaqin qatnashchilar, shu jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ga a’zo, kuzatuvchi va hamkor davlatlar, xalqaro rivojlanish institutlari, akademik doiralar va boshqa xorijiy mamlakat va tashkilotlarning jami 100 dan ortiq vakillari ishtirok etdilar. Xususan, forumda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) Bosh kotib o‘rinbosari va yordamchi ma’muri Usha Rao-Monari, Jahon Bankining Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy direktori Lalita Murti, Turk siyosatchisi, Turkiyaning sobiq Moliya va g‘aznachilik vaziri Lutfi Elvan, Jorj Vashington universiteti xalqaro biznes amaliyoti professori Denni Leypsiger, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Bosh kotibi Chjan Min, Kambag‘allik va inson taraqqiyoti bo‘yicha Oksford tashabbusi direktori Sabina Alkayr, Xitoy xalqaro kambag‘allikni qisqartirish markazi direktori Lyu Junvenning qatnashdilar. Shuningdek, tadbirda Birlashgan millatlar tashkiloti, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, YUNISEF, Fransiya taraqqiyot agentligi, Osiyo taraqqiyot banki, BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, Global yashil o‘sish instituti kabi xalqaro tashkilot va moliya institutlari vakillari ishtirok etdi.

Ijtimoiy davlat tamoyili asosida kambag‘allikni qisqartirish 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Misol

uchun, uning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” nomli to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida ijtimoiy davlat negizini tashkil etuvchi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, 43-maqsad bevosita har bir inson uchun munosib sharoit yaratish va turmush darajasini muntazam yaxshilab borishga yo‘naltirilgan.Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasining maqsadlariga erishishda Prezidentimiz asosiy e’tiborni birinchi galda Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya hisoblangan ta’limni rivojlantirishga qaratish kerakligini ta’kidladi. Jumladan, joriy yilda 70 ta yangi maktab qurilishi, 460 maktab kengaytirilishi, xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihasi boshlanishi, kelgusi besh yilda ularning sonini mingtaga yetkazish belgilab olingan.

Endilikda mamlakatimizda nafaqat maktab qurilishi va sifatli ta’limga, shu bilan birga, sifatli ta’lim negizini yaratuvchi “sog‘lom turmush tarzi hamda sog‘lom va sifatli ovqat bilan ta’minlash”ga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur tajriba 2022-yildan boshlab Qoraqalpog‘iston va Xorazmda yo‘lga qo‘yilib, 285 ming boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun bepul ovqatlanish yo‘lga qo‘yilgan edi. Joriy yildan esa ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etilib, buning uchun davlat byudjetidan yetarli mablag‘ ajratildi.

Shuningdek, ijtimoiy davlat strategiyasi asosida maktab bitiruvchilarini kasbga o‘rgatish masalasi yoshlarning bandligini ta’minlash borasida ustuvor yechimlardan biri sanaladi. Maqsad — yoshlarni ham bilimli, ham kasbli qilish va natijada ularni ish bilan ta’minlash. Bu yo‘nalishda ham aniq tizimli mexanizm ishlab chiqildi, ya’ni joriy yildan boshlab yangi dastur amalga oshirilib, unga ko‘ra, har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta’lim standartlari joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholi turmush sharoitini yaxshilashga, jumladan, aholining ehtiyojmand qatlami bandligini ta’minlash orqali ular uchun doimiy daromad manbaini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga

oshirilmoqda. Xususan, kambag‘allikni qisqartirishning ustuvorligi asosida ijtimoiy nafaqalarning qamrov darajasi kamida ikki marotaba oshirilib, ularni tayinlash jarayonining shaffofligini ta’minlash uchun avtomatlashtirilgan elektron tizim joriy etildi. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlami va kambag‘allik holatiga tushish xatari yuqori bo‘lgan aholi bilan manzilli ishlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari yaratildi.

Bundan tashqari, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bilan shug‘ullanadigan mutlaqo yangi tizim – hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari institutlari joriy etildi.

Davlat va jamoatchilik tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamiga yordam ko‘rsatish, ularni qo‘llabquvvatlash bo‘yicha normativhuquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda choratadbirlar belgilanib qator amaliy islohotlar olib borilgan. Garchi davlat tomonidan har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarining aksari aholini ijtimoiy himoya qilish islohotlariga bag‘ishlangan bo‘lsada, mamlakatda aholining sezilarli qismi kambag‘al holatda kun kechirishiga to‘g‘ri kelgan.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishga qarshi kurashish, bu borada choratadbirlar ishlab chiqish va amaliy natijalarga erishishga alohida e’tibor qaratilib, aholini ijtimoiy himoya qilish va har tomonlama qo‘llabquvvatlash sohasida izchil hamda samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqilayotgan dasturlar, amalga oshirilayotgan choratadbirlar bevosita ehtiyojmand aholiga ko‘mak ko‘rsatish, ularni kambag‘allikdan chiqarish hamda doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishlariga imkoniyat yaratishga yo‘naltirilmoqda.

Kraudsorsing loyihalarida qatnashishga undash, an’anaviy rag‘batlantirish bo‘lib, ayniqsa tijorat loyihalari uchun odatiy hol hisoblanadi. Jumladan, 2020-yil may oyiga qadar InnoCentive platformasida amalga oshirilgan loyihalar doirasida o‘rinli fikr-mulohazalar uchun 35 million AQSH dollari miqdorida haq

to‘langan.Innovatsion g‘oyalarni kraudsorsing platformasidan izlash jarayonida resurslarni taqsimlash va kraudsorsinga xos bo‘lgan muhim muammoni hal qilish usullarini aniqlash lozim ya’ni, ko‘p miqdorda kelgan taklif va mulohazalarni tahliliy qayta ekspertizasini tashkil etish zarur. Ushbu muammoni kam baholash loyihaning haqiqiy muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkin. Kraudsorsing fuqarolar va davlat organlarining o‘zaro aloqasi uchun yaratilgan elektron platformalarda xususan, Berlin, Tokio, London, Moskva meriyasi tomonidan ishlab chiqilgan platformalarda muloqotning ommaviyligi fuqarolar yoki davlat idoralari tomonidan ko‘tarilgan masalalar va muammolar bo‘yicha tezkor, aniq choralar ko‘riladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat organlari faoliyatiga tatbiq etish darajasi bunday xizmatlarni elektron hujjat aylanishi tizimlari bilan birlashtirib, tezkor javob berish va fuqarolarning murojaatlariga javoblar ustidan aniq idoralararo nazoratni tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, ayni platformalarni shakllantirilishi byudjetni rejalashtirishda ma’sullarga ayrim ma’lum bo‘lmagan, zarur byudjet parametrlarni qayd etishga imkon beradi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari ishtirokidagi keng jamoatchilik ko‘magi mavjud rejalarni tuzatishga va muammoni tezroq hal qilishga yordam ko‘rsatadi.

Bir martalik loyihalarni amalga oshirish yoki jamoat muhokamasi uchun vositalarni joriy etishning dastlabki bosqichlarida maxsus platformalarni yaratish shart emas. Xalqaro amaliyotda kraudsorsing sohasidagi professional vositachilar –bilim brokerlariga murojaat qilish qulay va samaraliroq ekanligini ko‘rish mumkin. Vositachi kompaniyalar jamoatchilik muhokamasini tashkil etish va rag‘batlantirish, bilimlar bazasini shakllantirish, kelib tushayotgan takliflarni baholash va saralash uchun tasdiqlangan texnologiyalardan foydalanadilar. Asosan ular beriladigan gonorarning 10 foiziga egalik qilishadi.Kraudsorsing loyihalarini ko‘p holatlarda izchillik yo‘qligi uchun tanqid qilinadi va ishonchsiz qaraladi. Bunday qarash shakllanishiga amalda uyushmagan va keraksiz ijrochilarommasiga murojaat qilinganligi hamda takliflar bazasini soha

mutaxassislari ekspertizadan o‘tkazmaganligi sabab bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarni hozirgi vaqtdagi eng dinamik axborot tizimlaridan biri deb aytish mumkin, xususan, u kraudsorsing jarayonida qator qo‘shimcha afzalliklarni beradi. Ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlarni tezroq tarqatish uchun foydali bo‘lib, ko‘plab munozara ishtirokchilarini aniqlashga va shu asosda qo‘shimcha xulosalar chiqarishga imkon beradi. Masalan, olis hududlarni rivojlantirish dasturlarini shaklantirishda, takliflarni ayni hudud vakillari bilan bir qatorda shu sohadagi mutuxassislardan olish hamda mualliflarining geografik joylashuvi asosida ayrim mintaqalarda tovar va xizmatlarga iste’molchilarning maqsadli guruhlarini aniqlash mumkin.Shuni ta’kidlash kerakki kraudsorsing muhokamaning ochiqligini ta’minlash uchun uning ko‘lamini cheklamaslik zarur. To‘g‘ri buning natijasida keraksiz fikr- mulohazalar oqimi katta bo‘ladi, lekin shu qatorda muammoning yechimlari ham ko‘rsatib o‘tilishi tayin. Bunda, tijoriy hamda davlat sirlariga aloqador bo‘lgan, maxfiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan masalalarni istisno qilinadi. Aholi orasida elektron xizmatlarning ommabopligi va internet-saytlardagi munozara ishtirokchilarining faolligi, munozaralarda ishtirok etish qulayligi kraudsorsing platformalarining faoliyati muvafaqqiyatli amalga oshirilishiga sabab bo‘ladi. Aholini ijtimoiy foydali faoliyatga ko‘ngilli ravishda undash oson bo‘lishi uchun, ular o‘z uyidan chiqmasdan kompyuter yoki telefon orqali qiyinchiliklarsiz takliflarini bildirishi lozim. Agar fikr-mulohaza yoki shikoyat yozish uchun murakkab protseduralardan o‘tish kerak bo‘lsa, bu holatda kraudsorsing texnolgiyalari foydali bo‘lmasligi mumkin. Bir vaqtning o‘zida bularning barchasi, internet ijtimoiy hayotning real sektoriga o‘tishini rag‘batlantiradi.

Bugungi kunda, respublikamizdagi ba’zi vazirlik va idora rahbarlari dastlab o‘z faoliyatiga kirishish bosqichida ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarga murojaat yo‘llab, ayni tizimni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar so‘rayotganiga guvoh bo‘lamiz, yana ba’zi bir yosh rahbarlar telegram messenjeri orqali ovozli

chat uyushtirib jamoatchilik fikrini o‘rganmoqda, albatta bu ijobiy qabul qilinayotgan jarayon hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, bu amaliyotlar davomli bo‘lishi hamda hududlar kesimida ham amalga oshirilishi lozim. Shu bilan bir qatorda, to‘laqonli aynan messenjer yoki ijtimoiy tarmoqda emas balki, ayni sohada tashkil qilingan kraudsorsing platformalarida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.Shu o‘rinda aytish lozimki, jamoatchilik bilan aloqa mexanizmlarini yanada takomillashtirish, zamonaviy aloqa imkoniyatlaridan davlat boshqaruvi organlari faoliyat samaradorligini bosqichma-bosqich oshirishda foydalanish bugungi zamon ta’labi bo‘lib qolmoqda. Elektron hukumatni yangi bosqichga olib chiqish oraqali hokimiyatning barcha tarmoqlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini ijtimoiy faolligini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishi natijasida, kambag‘allikni jilovlash, uni qisqartirish, qashshoqlikni oldini olish, qashshoqlikni insonlar ruhiyatiga kirib bormasligiga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M 2026-yil 28-avgust kuni Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom.1. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

4. Vaxabov A.V., Bahtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. –T.: “Universitet” nashriyoti, 2020. – 154 b.; Umurzakov B.X. va b. Mehnat resurslari shakllanishi va taqsimlanishining hududiy usullari. Monografiya. –T.: “Lesson Press”, 2017-y. -

184 b.; Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari. // Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008. - 25 b.

5. Хусанов Б.Ш. Проблемы регулирования финансового механизма социалного обеспечения населения // Автореферат диссертатсии на соискание ученой степени кандидата экономических наук: -Т.: 2011.25 с.;

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 199.

7. “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. https://regulation.gov.uz/oz/d/61526